



SOLIQNI TO'LASHDAN MANFAATDOR BO'LISHGA QARATILGAN SOLIQ-BYUDJET SIYOSATI

G'iyosov Azizbek A'zamovich

Soliq qo'mitasi huzuridagi fiskal instituti, PhD

Annotatsiya. Maqolada davlat xarajatlari soliq to'lovshilar tomonidan to'langan soliqlar hisobiga amalga oshirilganligini tushuntirish orqali ularni soliq to'lashdan manfaatdor bo'lishiga oid takliflar yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, soliq, byudjet, daromad, xarajat, soliq yuki, soliq ma'murchiligi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, manfaatdor.

НАЛОГОВО-БЮДЖЕТНАЯ ПОЛИТИКА, НАПРАВЛЕННАЯ НА ПОВЫШЕНИЕ ЗАИНТЕРЕСОВАННОСТИ В УПЛАТЕ НАЛОГОВ

Гиёсов Азизбек Азамович

Фискальный институт при Налоговом комитете, PhD

Аннотация. В статье освещаются предложения, касающиеся заинтересованности налогоплательщиков в уплате налогов, разъясняя, что государственные расходы осуществляются за счет уплачиваемых ими налогов.

Ключевые слова: экономика, налог, бюджет, доход, расход, налоговое бремя, налоговое администрирование, юридическое лицо, физическое лицо.

FISCAL-BUDGET POLICY AIMED AT INTEREST IN PAYING TAXES

G'iyosov Azizbek A'zamovich

Fiscal Institute under the Tax Committee, PhD

Abstract. The article highlights proposals concerning the interest of taxpayers in paying taxes by explaining that public expenditures are carried out at the expense of taxes paid by them.

Keywords: economy, tax, budget, income, expense, tax burden, tax administration, legal entity, individual.

Kirish.

Soliq siyosatidagi 2017-yildan boshlab amal qilayotgan o'zgarishlar muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan belgilab berilgan asosiy yo'nalishlardan, xususan yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish orqali aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilanib kelinmoqda.

Xususan, 2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash hamda 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishga oid ustuvor yo'nalishlari belgilanganligi buning yaqqol isbotidir (Farmon, 2017).

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda soliq siyosatining o'rni beqiyos va avvalo shuni ta'kidlash kerakki uning asosiy yo'nalishlari o'tgan yillarda bo'lgani kabi xo'jalik yurituvchi subyektlarga va aholiga soliq yukini yanada kamaytirishga, soliq solish tizimini soddalashtirishga, mahalliy byudjetlar daromadlarini mustahkamlash va soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalariga qaratilgan.

Xususan, 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish, ayniqsa ish haqiga soliq yuki 1,5-2 barobar kamaytirish va natijada rasmiy sektorda ishlayotganlarni ko'paytirish belgilangan.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo'lgan insofli, halol soliq to'lovchilarni rag'batlantirish, yashirin faoliyat yuritadiganlarni esa jazolash ko'zda tutilishi shart. Ma'lumki, soliq stavkalari pasaytirilishi yoki ayrim soliqlar bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan mablag' albatta kamayadi. Buni samarali soliq ma'muriyatchiligi orqali bartaraf etish va byudjet barqarorligini ta'minlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtda to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerakligi, joriy etiladigan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkinligi ta'kidlangan. Yalpi ichki mahsulotda "yashirin" iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish "yashirin" iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'li sababli bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqish zarurligi belgilangan⁵.

Adabiyotlar sharhi.

Soliqlar xazina siyosatining bir qismi sifatida namoyon bo'lishini P.Samuelsan aniq ifodalab bergan. Makkonnell bilan Bryuning (2006) xuddi shunga o'xshash nuqtai nazari ularning "Ekonomiks" nomli asarida belgilab berilgan, shu bilan birga amalga oshirilishi mumkin bo'lgan xazina siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun hal etiladigan vazifalaridan kelib chiqib, ham rag'batlantiruvchi siyosat, ham to'sqinlik qiluvchi siyosat sifatida qaraladi. "Xazina siyosatining asosiy maqsadi, - deb yozishadi ular, - ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag'batlantiruvchi xazina siyosati to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1 - davlat xarajatlarining ko'payishi, yoki 2 - soliqlarning pasayishi, yoxud 1 va 2 ni birga qo'shib olib borish va aksincha, agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo'lgan inflyatsiya sodir bo'lsa, bunga to'sqinlik qiluvchi xazina siyosati mos keladi. To'sqinlik qiluvchi xazina siyosati quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1 - hukumat xarajatlarining kamayishi, yoki 2 - soliqlarning ko'payishi, yoxud 1 va 2 ning birga qo'shib olib borilishi. Xazina siyosati, basharti iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo'lsa, hukumat byudjetining ijobiy qoldig'iga tayanishi lozim" (Макконель, Брю, 1972).

Jumladan, ingliz faylasufi Bekonning (1978) "xalqning roziligi bilan undiriladigan soliqlar uning mag'rurligini pasaytirmaydi. Xalqning roziligi bilan yoki uning roziligisiz yig'im hamyon uchun farqsiz bo'lishi mumkin, ammo xalq ruhiyatiga ta'siri bir xil emas", degan fikrlarini zamonaviy talqinidan tushunish mumkinki, agar soliq va boshqa majburiy to'lovlar xalqni roziligisiz joriy qilingan bo'lsa, soliq qarzdorligini paydo bo'lishiga yoki umuman soliqdan qochishga olib keladi.

U.Pettining fikrlariga ko'ra, "... me'yordan ortiqcha soliq aholining hatto tabiiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan predmetlarga bo'lgan haddan ziyod va chidab bo'lmaydigan zaruratini keltirib chiqaradi. Bunday soliq kishilarni o'g'rilik va firibgarlikka majbur etadi" (Петти, Смит, 1991). Olimning fikridan kelib chiqqan holda bu kabi ortiqcha soliq me'yori soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini va soliq bo'yicha qarzdorliklarni vujudga keltirishga sabab bo'lishi muqarrar.

A.Smitning fikriga ko'ra soliqlarni to'lash uchun shaxs o'sha to'lovni qaerdan olishga ega bo'lishi kerak. Daromadlarga ega bo'lgan to'lashi va barcha daromadlar 3 manbadan paydo bo'lishi mumkin. Bular er, kapital va mehnatdan, qolgan barcha daromad turlari ikkilamchi va oxir oqibat yuqorida nomi keltirilgan 3 turdan shakllanadi (Майбурд, 1996).

Buning mazmuni shundan iboratki, amaliyotda u yoki bu soliqni joriy etish va uni undirish natijasida byudjetga borib tushgan mablag'lardan amaldagi mablag'larning hajmi ancha katta bo'lgan summani tashkil etishi mumkin va albatta ushbu mablag'lar hisobidan davlat xarajatlarini amalga oshirish mumkinligini bilan izohlanadi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018-yil 28-dekabr.

Tahlil va natijalar.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai ekanligini bilamiz, shunday ekan, bugungi kunda sog'lom raqobat muhitini shallantirish, soliq va yig'imler yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, xufiyona sektorda faoliyat yurituvchi shaxslar faoliyatini legallashtirish, soliq to'lovchilarning o'z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishiga erishish byudjet daromadlarini oshirishning asosiy omillari sifatida qaraladi.

Respublika byudjetining daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini ijro etish bilan bog'liq munosabatlar 2020-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni va uning ijrosini ta'minlashga oid prezident qarori bilan tartibga solishdan iborat bo'ldi.

1-jadval**2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari, mlrd.so'mda⁶**

T/r	Ko'rsatkichlar	2020-yil uchun	2021-yil uchun	2022-yil uchun	2023-yil uchun	2023-yil ulushi, foizda
I.	Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	158 960,1	178 712,4	254 582,5	310 677,9	
1.	Davlat byudjeti daromadlari*	128 460,0	147 202,3	199 500,0	232 107,1	74,9
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari*	25 385,1	26 173,9	31 935,9	41 250,7	13,3
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar	5 115,0	5 336,2	8 495,3	11 712,0	3,8
4.	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar			14 651,4	25 608,1	8,4
II.	Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari	162 385,0	216 246,6	280 128,7	343 212,6	
1.	Davlat byudjeti xarajatlari *	121 856,4	149 950,5	188 911,5	227 866,6	66,4
2.	Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlari	35 413,6	40 772,5	58 179,0	70 212,9	20,5
3.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining sarflanishi	5 115,0	13 423,6	7 727,1	11 712,0	3,4
4.	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining sarflanishi			14 614,5	25 608,1	7,5
5.	Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar		12 100,0	10 696,5	7 813,0	2,3

* Byudjetlararo transfertlarni hisobga olmagan holda.

Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlariga nisbatan konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari yoki tegishliligicha Davlat byudjeti daromadlari daromadiga nisbatan xarajatlari, davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari va xarajatlari, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tushumlar va ushbu mablag'larning sarflanishi hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlar va sarflanishi o'rtasidagi mutanosibligini tahlil qilar ekanmiz, Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlaridan ortiqligini ko'rishimiz mumkin.

Respublika byudjeti daromadlari prognozi hamda respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlarini qonunga muvofiq tasdiqlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Bunda, Davlat byudjeti daromadlarining asosiy byudjet daromadlari qismining salkam 80 foizi soliqlar va yig'implardan tashkil topadi.

Shu o'rinda mazkur byudjet daromadlarini shakllantirishda davlat soliq organlarining xizmatlarini e'tirof etish o'rinlidir. "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlariga yuklatilgan asosiy vazifalari doirasida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar keltirilsa hech ham mubolag'a bo'lmaydi va ular quyidagilardan iborat:


davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni, shuningdek soliq va yig'implarni O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlashga oid vazifalarning 2022-yil uchun soliq turlari va hududlar kesimidagi ko'rsatkichlarini 1-rasmda keltirilgan raqamlar bilan ifoda etish mumkin bo'ladi.

⁶ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrda O'RQ-589-son, 2020-yil 25-dekabrda O'RQ-657-son, 2021-yil 30-dekabrda O'RQ-742-son va 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-813-son Qonunlari 1-ilovasi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-2023-yillar uchun respublika byudjeti daromadlari prognozi⁷ mlrd. so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023
	O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari	98 186,1	120 231,7	162 587,0	183 442,8
1.	Bevosita soliqlar	25 187,2	32 515,5	44 342,0	47 127,1
1.1	Foyda solig'i	19 839,0	26 064,8	35 448,6	37 140,4
1.2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5 348,2	6 450,8	8 893,4	9 986,7
2.	Bilvosita soliqlar	52 165,6	60 145,9	69 814,4	84 515,5
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	42 992,4	46 955,4	53 300,0	63 775,4
2.2	Aksiz solig'i	6 461,2	9 439,3	11 687,8	13 988,1
2.3	Bojxona boji	2 712,0	3 751,2	4 826,6	6 752,0
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	15 340,2	12 919,9	13 760,3	14 780,1
3.1	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 340,2	12 919,9	13 760,3	14 780,1
4.	Dividendlar (dividendlar ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan foyda solig'ini hisobga olmagan holda)			30 222,3	29 532,2
5.	Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan boshqa tushumlar	5 493,1	14 650,4	4 448,0	7 488,0

Soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirishga oid vazifalarni amalga oshirilishini ko'radigan bo'lsak, 2023 yil 1 yanvar holatiga yuridik shaxslar soni 566 mingdan (2022 yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga ko'p) hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarni soni 238 mingdan ortiq (2022 yilning shu davriga nisbatan 9,4 foizga ko'p) tashkil etib, jami tadbirkorlik sub'ektlari bo'lgan aholining jon boshiga nisbatan 2,2 foizga tengligi (804 ming/36 mln.ga*100) yoki soliq ma'murchiligida ishtirok etayotgan soliq organi xodimlari soniga nisbatan 77 taga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Soliq organlarining 2022-yilda byudjet tushumlari⁸

Soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, bunda soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirishda muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

⁷ O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son, 2020 yil 25 dekabrda O'RQ-657-son, 2021 yil 30 dekabrda O'RQ-742-son va 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-813-son Qonunlari 4-ilovasi.

⁸ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.


Xususan, tekshiruvdan oldingi tahlil - taqdim etilgan soliq hisobotini va soliq to'lovchining faoliyati to'g'risidagi boshqa tashqi manba axborotlarni soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan holda "Avtokameral" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral soliq tekshiruvi tayinlangan sanadan e'tiboran yakunlangan hisoblanadi.



2-rasm. 2023-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni⁹

Soliq tekshiruvlari Soliq kodeksining 137-moddasiga asosan 3 ta turda o'tkaziladi. Kameral soliq tekshiruvi – soliq tekshiruvchilar (soliq agentlari) tomonidan soliqlar va yig'imlar to'g'ri hisoblanishini o'z vaqtida va to'liq budjet tizimiga to'lanishini tekshirish maqsadida soliq to'lovchi, soliq agentlari tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va soliq organida mavjud bo'lgan soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida boshqa ma'lumotlarni o'rganish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruv hisoblanadi.

Kameral nazorati soliq organlarining eng muhim faoliyatidan biridir. Soliq hisobotlarini qayta ishlash va tahlil qilish jarayonini avtomatlashtirish, ya'ni "Kameral nazorat" dasturiy mahsuloti yordamida kameral nazorati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Soliq organlarining asosiy vazifalaridan biri soliq qonunchiligining bajarilishini nazorat qilish ekanligini hisobga olsak, kameral nazorati uni barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda hal qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, kameral nazorati tadbirkorlik sub'ektlariga xatolarni o'z vaqtida tuzatishga va hujjatli soliq tekshiruvlari paytida moliyaviy sanksiyalardan xalos bo'lishga imkon beradi, ya'ni bunda xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining kamsitilganligini sezmaydigan sharoitlar yaratiladi.



3-rasm. 2022-yilda o'tkazilgan kameral soliq tekshiruvlari¹⁰

⁹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

¹⁰ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

Sayyor soliq tekshiruvi soliq to'lovchi tomonidan sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik to'g'risida jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar, Soliq xavfi elektron dasturi, valyuta operatsiyalari bo'yicha monitoringda aniqlangan holatlar, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa organlar ma'lumotlari asosida o'tkaziladi.

Soliq to'lovchining ayrim majburiyatlari deganda – savdo qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan, nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo'llanilishi, tovarlarning qonuniy kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatlari mavjudligi, shuningdek, ishchilar sonini, tushumlar va ishlab chiqarish hajmlarini soliq hisobotlarida aks ettirilishi, valyutani tartibga solishga doir qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi va boshqa qonunchilikda belgilangan majburiyatlar tushuniladi.


Soliq auditi yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan joyiga chiqqan holda amalga oshiriladi. Budget tizimiga soliq va yig'imga to'lanmasligi yoki to'liq to'lanmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan, soliq to'lovchi tomonidan soliq majburiyatlarini bajarmaslik soliq xavfi deb e'tirof etiladi. Bunda soliq to'lovchilarni segmentlash quyidagicha toifalanadi:

1 ball dan 29 ballgacha to'plagan soliq to'lovchilar past xavf ya'ni, «yashil» yo'lak bo'lib, ularga nazorat tadbiri tayinlanmaydi.

30 ball dan 80 ballgacha to'plagan soliq to'lovchilar o'rta xavf ya'ni, «Sariq» yo'lak bo'lib ularga «kameral» soliq tekshiruvi tayinlanadi.

81 ball dan 100 ballgacha to'plagan soliq to'lovchilar – yuqori xavf ya'ni, «qizil» yo'lak hisoblanib, ularga «Soliq auditi» tayinlanadi.

Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tekshirish o'tkazishga e'lon qilingan moratoriy sababli o'tkazilgan soliq auditlari soni 1157 tani yoki jami soliq to'lovchilarning soniga nisbatan 0,2 foizni tashkil etgan.



4-rasm. 2022-yilda o'tkazilgan soliq auditi natijalari va soliq-hamkor orqali kelib tushgan murojaatlar va o'tkazilgan tekshirishlar¹¹

Pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash yo'nalishida ham keng jamotchilikni jalb etgan holda bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.


«Soliq hamkor» («Soliq hamkor») – yashirin iqtisodiyot omillarini aniqlashda fuqarolarni davlat soliq xizmati organlari bilan samarali hamkorlik qilishga chaqiradigan axborot tizimi. Kundalik hayotda bunday omillarga narxlarning asossiz ko'tarilishi, chek bermaslik, noqonuniy savdo yoki xizmat ko'rsatish va h.k. kiradi. Ushbu tizim doirasidagi hamkorlik ixtiyoriy va masofaviydir. Hamkor soliq to'lovchining, soliq agentining yoki boshqa shaxsning Soliq kodeksida javobgarlik belgilangan harakatlari yoki harakatsizligi to'g'risida davlat soliq xizmati organlariga xabar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5252-sonli qaroriga muvofiq, chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarida xaridni amalga oshirgan va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazgan jismoniy shaxslarga ularning bank kartalariga oy yakuni bilan xarid summasining 1 foizi respublika budjetidan qaytariladi,

¹¹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

bundan avtomobil sotib olganlik uchun, temir yo'l va avia chipta xaridi, kommunal va aloqa xizmati uchun to'lov, xarid cheklari mustasno qilinadi.


Onlayn nazorat-texnikalari cheklarining QR-kodini "Soliq" mobil ilovasida ro'yxatdan o'tkazib xarid summasidan 1% keshbek olish amaliyotga joriy etilganidan buyon davlatga soliqlar tushumi ko'payadi. Buni intizomli soliq to'lovchilar safi kengayib borayotgani hamda onlayn nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazorati kuchaygani bilan izohlash mumkin. Bu o'z navbatida yashirin iqtisodning asta-sekinlik bilan bo'lsada qisqarishiga sabab bo'ladi.



5-rasm. 2022-yilda onlayn nazorat-kassa texnikalaridan foydalanish va marketplace'lar to'g'risida ma'lumot¹²

Soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga o'tish yo'li bilan amalga oshirishda ayniqsa soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda elektron xizmatlarni kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida, davlat soliq xizmati organlari tomonidan 45 dan ortiq elektron xizmatlar, shundan, 27 ta – axborot davlat xizmatlari, 18 ta – interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda.

Mazkur xizmatlar Soliq qo'mitasining "Elektron davlat xizmatlari - my.soliq.uz" portali orqali ko'rsatilib, jami 1,9 mln.dan ortiq foydalanuvchilar tomonidan 105,6 mln. marotaba murojaatlar bo'lgan. Ya'ni, murojaatlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,3 foizga oshdi.



6-rasm. "Soliq" mobil ilovasini 2022-yil davomida yuklab olish va foydalanish¹³


¹² Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

¹³ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

Soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish va soliqlarning ixtiyoriy ravishda to'lanishini ta'minlashga qaratilgan, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha qator choralar ko'rilgan. xususan, soliq to'lovchilarning asosiy soliq majburiyatidan biri qonunchilikda belgilangan soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida hamda to'liq hajmda hisoblab chiqarishi va to'lashi hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va yig'implarni ixtiyoriy to'lash darajasi 2022 yil yakunlari bilan 97 foizni tashkil etib, o'tgan 2021 yil mos dafriga nisbatan 2 foizli punktga yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishga ko'maklashish maqsadida Davlat soliq qo'mitasining 2022 yil yanvar – iyul oylarida eksperiment tariqasida xorazm viloyati davlat soliq boshqarmasida hisobda turgan soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, aylanmadan olinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq hisobotlarining soliq organlari tomonidan hisoblab chiqarilishi va shakllantirib berilishi belgilangan (Фармон, 2021).



7-rasm. 2022-yilda soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning ixtiyoriy to'lanishi darajasi¹⁴

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan davlat budjetini shakllantirish masalalari bo'yicha hamkorlik qilishda soliq organlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati axborot-kommunikatsiya tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1843-sonli qarorining qabul qilinishi bu jarayonda yangi bosqichni boshlab berdi. Davlat soliq qo'mitasining axborot-tahlil bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan vazifalar qatoriga davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning strategik yo'nalishi bo'lgan budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlarni tahlil qilish va prognoz qilish kiritildi.

Butun jarayonning dastlabki bosqichi hududiy davlat soliq xizmati organlarining axborot bazalarini Davlat soliq qo'mitasining markaziy bazasiga integratsiyasini qamrab oldi. ikkinchi bosqichda vazirliklar va idoralarning soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelishi (tugatilishi) to'g'risidagi axborot bazalari Davlat Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Qarorga muvofiq (Kapop, 2012), tegishli 43 ta davlat yoki boshqa organlar endi aniq belgilangan xarakterdagi ma'lumotlarni DSQ ga uzatishlari shartligi belgilangan. Barcha darajadagi soliq organlarining apparat, dasturiy, texnik va telekommunikatsiya tizimlari Yagona integratsiyalashgan axborot-resurs bazasiga integratsiya qilindi. Katta hajmdagi axborotni tezkor qayta ishlash, uning yaxlitligini va axborot xavfsizligining yangi darajasini ta'minlash - ushbu vazifalarni ushbu tizim yordamida hal etish soliq to'lovchilar uchun elektron xizmatlar doirasini kengaytiradi.

¹⁴ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

Hozirgi kunda soliq xizmati tomonidan davlat bojxona qo‘mitasi, markaziy bank, ichki ishlar vazirligi, kadastr, adliya vazirligi va boshqa 53 ta vazirlik va idoralar bilan elektron ma‘lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda Soliq qo‘mitasining asosiy strategik vazifasi soliq xizmatining fiskal organdan xizmatga yo‘naltirilgan idoraga aylanishi bo‘lib, u davlat nomidan soliq to‘lovchilar bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq to‘lash bo‘yicha konstitutsiyaviy burchini bajarish jarayonida ishonchli munosabatlarni shakllantirishi lozim. zamon talablariga muvofiq, barcha davlat xizmatlarini elektron formatga o‘tkazish, elektron davlat xizmatlari turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, fuqarolar va tadbirkorlik sub‘ektlariga boshqa axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatish soliq organlarining ustuvor vazifasidir.



8-rasm. 2022-yilda elektron hisobvaraƒ-fakturalardan foydalanuvchilar soni va tovar aylanmasi, trln.so‘mda¹⁵

Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligi jarayonlarida elektron hisob-fakturalarni (ehf) joriy qilish, hisobga olish va nazorat qilishning texnik vositalarini taqdim etish mavjud xato va kamchiliklarni oldini olish bilan bir qatorda ish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

EHF tizimi katta mehnat, ko‘p vaqt talab etadigan ishlarni tezroq, arzonroq, qulayroq va o‘rtadagi vositachilarsiz hal etishga xizmat qiladi. qog‘oz shaklida bir dona hisobvaraƒ-fakturani rasmiylashtirish uchun qog‘oz sarfi, manzilga yetkazish va olib kelish ishlari 3 kundan 10 kungacha vaqt “o‘g‘irlagan” bo‘lsa, ehfni shakllantirish va uni hatto eng uzoq hamkorlarga yuborish uchun bir necha daqiqa kifoya bo‘ladi.

MXIK - bu ma‘lum bir tovar yoki xizmat turiga tayinlangan belgilar (raqamlar) to‘plami ko‘rinishida taqdim etilgan tovar va xizmatlarning identifikatsiya kodi hisoblanadi. foydalanuvchining elektron hisobvaraƒ-fakturalar, elektron shartnomalar va onlayn-nazorat kassa mashinalari hamda virtual kassalar tizimida foydalaniladi. davlat soliq qo‘mitasining mahsulot (tovar va xizmat)larning yagona elektron milliy katalogiga (<https://tasnif.soliq.uz/>) 130 mingdan ortiq tovar va xizmatlar kiritilgan bo‘lib, ular toifalarga, sinflarga va guruhlariga bo‘lingan.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan cheklarda mxikni noto‘g‘ri yoki umuman aks ettirilmaganligi sababli ularni xaridorlar ro‘yxatdan o‘tkazib, keshbek olishida muammolar ishi kuzatilmoqda. 2022-yil 1-yanvardan MXIK aks ettirilmaydigan cheklarni taqdim etish taqiqlangan bo‘lsada, ayrim tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan nazorat-kassa texnikalarini yangi talablarga moslashtirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmagan qolmoqda.

Onlayn nazorat-texnikalari cheklarida tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo‘lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirish - cheklarda ko‘rsatilgan realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining 1% miqdorida jarima belgilangan.

Qaror (Kapop, 2021) bilan 2022-yil 1-fevraldan boshlab to‘lov tashkiloti, tijorat banklarining elektron to‘lov xizmatlari, shuningdek, elektron tijorat platformalari - «Marketpleys»-larning axborot tizimlari yordamida masofadan turib amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlar bo‘yicha

¹⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasining t.me/fiskaltahlil (<https://t.me/fiskaltahlil>) rasmiy telegramm kanali.

tranzaksiyalarning («P2P», kredit to'lovlari bundan mustasno) elektron cheklarida soliq organlari axborotlar tizimlariga integratsiyalashgan va avtomatik tarzda shakllanuvchi fiskal belgilarni majburiy aks ettirish talabi o'rnatildi.

Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta'minlashdan iboratdir.

Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish maqsadida Davlat soliq va bojxona qo'mitalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi negizida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi shaklida qayta tashkil etilib (Farmon, 2022), vazifa va funksiyalari doirasida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini ijrosini ta'minlashga mas'ul idoralar sifatida belgilandi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, vazirlik – tegishli sohalarda yagona davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, muayyan yo'nalishda ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni yakkaboshchilik asosida tashkil etadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi va qo'mita – tegishli soha ichidagi tarmoq faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi hamda tizimdagi rahbariy faoliyatni kollegial asosda tashkil etadigan, shuningdek, vazirlikning tashkiliy bo'ysunuvida faoliyat yuritadigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi qayd etilgan.



9-rasm. 2022-yilda Soliq organlari xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish

Shuningdek, Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish maqsadida vazirlik va huzuridagi qo'mitalar, agentliklar va inspeksiya hamda ular hududiy va tuman (shahar) bo'linmalarining Davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan jami boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni tasdiqlandi (Farmon, 2023). Iqtisodiyot va moliya vazirligida 6240 nafar, Soliq qo'mitasida 9766 nafar, Bojxona qo'mitasida 4002 nafar, G'aznachilik xizmati qo'mitasida 1344 nafar, Kadastr agentligida 961 nafar va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasida 362 nafar faoliyat yuritadigan xodimlarning cheklangan sonidan iborat.

Albatta yangi tashkil etilgan vazirlik zimmasiga yuklatilayotgan **milliy** iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishga oid ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirishdagi vazifalarni bajarishga mas'ul bo'lgan rahbar va xodimlarni dunyoqarashi, ularni egallab turgan mansab martabalari doirasida kasbiy

kompetensiyalariga egaligi hamda tezkorlik bilan inson qadrini ulug'lashga qaratilgan qarorlarni qabul qila olishligi asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Soliq to'lovchilarmiz soliqlardan qochishlari emas, balki ularni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerakligi bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

davlat xarajatlari ko'rinishidagi ajratilayotgan mablag'larni to'lanayotgan soliqlar hisobidan shakllantirilgan davlat daromadlari hisobidan manzilli amalga oshirilayotganligi bo'yicha soliq to'lovchilarga muntazam ravishda moliyalashtirishga mas'ul idoralar tomonidan xabardor qilib borish tizimini takomillashtirish;

byudjet daromadlarini shakllantiruvchi soliqlar va yig'imlar bo'yicha ma'murchiligini yanada soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish hisobiga soliq bazasini yanada kengaytirgan holda barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, ya'ni soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida teng taqsimlash va soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish;

davlat daromadlari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy sohalar ko'rsatadigan xizmatlarni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tganligini izohlash ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashga oid majburiyatlarini bajarilishiga shubha qilayotganligi afsuski, yalpi ichki mahsulotda "yashirin" iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur va bunday dasturlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali inson omilini kamaytirish hisobiga manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yish darkor. Shu bilan birga, o'zimizda ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan yuqori likvidli mahsulotlar markirovkasini joriy etish bo'yicha jadal ish olib borish orqali talab etiladi.

Soliqlarni to'lashdan manfaatdor bo'lishga ta'sir etuvchi omillar davlat daromadlari va xarajatlarini ijro etishga mas'ul vazirlik va idoralarning xodimlari tarkibi, ularning kasbiy mahoratlari, malakasiga bog'liq bo'lganligi sababli, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash dolzarb ahamiyatga egadir.

Bunda, Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti asosiy xab vazifasini bajarishida xodimlarini kasbiy mahoratini oshirish shakl va tartiblarini uyg'unlashtirilishi lozim bo'ladi. Xususan, malaka oshirish kurslarini ikki qismga – kasbiy ko'nikmalar (hard skills) va umumiy ko'nikmalar (soft skills)ga ajratilgan holda qo'yidagi ko'rinishlarda tashkil etilishi talab etiladi:

yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun ularning zarur bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish orqali yangi kasbiy faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan o'quv kurslari;

tegishli o'quv reja va dasturlari talablaridan kelib chiqqan holda, soliq va moliya sohasiga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarning malaka va ko'nikmalarini yangilab borish orqali ularning kasbiy mahorati oshirishini ta'minlashga qaratilgan malaka oshirish kurslari;

soliq-byudjet qonunchiligidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida vazirlik tizimi xodimlarining katta qismiga yetkazishga qaratilgan qisqa muddatli maqsadli kurslar;

masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali tashkil etiladigan onlayn va offlayn shakldagi masofaviy o'quv kurslari.

Xodimlarining kasbiy bilim va malaka darajasini oshirish soliq ma'muriyatchiligini samarali amalga oshirish hisobiga soliq yig'iluvchanligini oshirish hamda davlat byudjeti xarajatlarini ijro etishga oid olingan bilimlar orqali "Soliqchi – tadbirkorga ko'makchi" va "Soliq to'lashdan manfaatdor bo'lishi" tamoyillari asosida soliq to'lovchilarga ko'maklashish "inson qadrini ulug'lash" kabi dolzarb vazifalarning ijrosini ta'minlashga bevosita yordam beradi.

Adabiyotlar/Jumepamyapa/Reference:

Farmon (2017) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-269-son Farmoni.

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-14-son Farmoni.

Бекон Ф. (1978) Сочинения в двух томах. Т. 2. –М.: "Масль" (Филосовское наследие),.–575 с. <http://filosf.historic.ru/books/item/f00/s00/z0000455/index/shtml/>.

Кэмпбелл Р. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. (2006) Экономикс: принципы, проблемы и политика. Пер. 16-го англ. изд. – М.: "ИНФРА", – 940 б.

Қарор (2012) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 30 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати ахборот-коммуникация тизими самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПҚ-1843-сонли Қарори

Қарор (2021) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 октябрдаги "Чакана савдо ва хизмат кўрсатиш соҳасида назорат-касса техникасидан фойдаланишни такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ПҚ-5252-сонли қарори.

Майбурд Е.М. (1996) Введение в историю экономической мысли. –М.: Дело, Витапресс. – Б.544.

Макконель К., Брю С. (1972) «Экономикс» М. й. 249-стр.

Петти У., Смит А., Рикардо Д. (1991) Антология экономической классики. В 2-х томах. Т. I. Пред. И.А.Столяроваю – М.: МП "ЭКОНОВ",.–С.27.

Фармон (2021) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 7 сентябрдаги "Солиқ мажбуриятларини бажаришда тадбиркорлик субъектларига янада қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6307-сонли Фармони